

## ORKESTR VA DIRIJYOR

### Ro‘zimurodov Ilyos Azamat o‘g‘li – Xalqaro Nordik universiteti musiqa ta’limi kafedrası katta o‘qituvchisi

Orkestr (yunoncha orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli musiqa cholg‘ularida ijro etuvchi sozandalardan tuzilgan jamoa bo‘lib, shu tarkib uchun yaratilgan musiqiy asarni ijro etadi. Kamer cholg‘u ansambllardan (kvartet, kvintet va boshqalar) orkestrning farqi shundaki, ba’zi sozandalardan bir ovozda (unisonda) ijro etuvchi guruhlar tuziladi. Orkestrdagi cholg‘ular guruhleri va tuzilishlariga ko‘ra, ular turlicha bo‘ladi. Yunoncha simfonik orkestr, damli orkestr, xalq cholg‘ulari orkestrlariga torli-kamonli, puflama va zarbli cholg‘ular kirsas, damli-puflama orkestrga misli va yog‘ochli, puflama hamda urma cholg‘ular kiradi. Estrada orkestri, jaz orkestri va boshqa orkestr turlari ham mavjud bo‘lib, O‘zbekistonda orkestrlarning barcha turlari faoloyat yuritadi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida turli katta-kichiklikda temperatsiyalanib ishlanganligiga ko‘ra eng past (yo‘g‘on) va eng baland (ingichka) tovushlarni ijro etish mumkin. Bu orkestrga quyidagi cholg‘ulari kirib, ular quyidagi besh guruhga bo‘linadi. I - katta va kichik nay, qo‘shnay va surnaylardan iborat yog‘ochli puflama cholg‘ular; II - chang va qonun - torli urma cholg‘ular; III - katta-kichik ruboblar, afg‘on rubobi, tanbur hamda do‘mbiralardan iborat tirnama cholg‘ular; IV - doyra va nog‘oralardan iborat urma cholg‘ular; V - katta-kichik g‘ijjklardan iborat kamonli - torli cholg‘ular - g‘ijjak, g‘ijjak alt, g‘ijjak bas va g‘ijjak kontrabas cholg‘ulari. Dirijyor (fransuzcha dirijyor – yo‘naltirish, boshqarish, rahbarlik qilish) musiqa asarini ijro etuvchi jamoalar orkestr, xor va boshqa ansambllar, opera, musiqali drama, balet va operetta spektakllarini boshqaruvchi hisoblanadi. Dirijyor bevosita ijodiy jamoalar bilan musiqiy asarlar ustida ishlash, ularni konsert yoki 13 spektakllarga tayyorlash mashg‘ulotlarini o‘tkazadi, so‘ngra tinglovchilar oldida ijro etishiga rahbarlik qiladi. Har bir asarning mazmuni va mohiyatini ochishda, talqin etishda, kompozitorlar yaratgan asarni asosiy g‘oyasini tinglovchilarga yetkazishda dirijyorning hissasi nihoyatda katta. Dirijyor eng avvalo yuqori malakali sozanda. U musiqiy adabiyotning yaxshi bilimdoni sifatida orkestr cholg‘ulari imkoniyatlarini bilishi bilan birga o‘zi ham ayrim cholg‘ularni mohirona ijro etishi shart. Dirijyor juda ko‘plab fazilatlariga ega bo‘lishi shart. Eng avvalo mukammal eshitish qobiliyati bo‘lishi, musiqiy nazariy bilimlga va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi shart. Dirijyor orkestr jamoasidagi har bir ijrochi sozandalar imkoniyatlarini, ruhiy holatini imkon qadar yaqindan bilishi, shu bilan birga badiiy-ijodiy, professional imkoniyatlarini boyitib borishga mas‘ul. Dirijyor faoliyatining barcha jarayonlari undan kuchli irodani talab qiladi. Dirijyor o‘z xatti-harakatini ongli ravishda tartibga solishi va ko‘zlagan maqsadini amalga oshirishda uchraydigan to‘siqlarni bartaraf etishga harakat qilishi shart. Turli cholg‘ular ijrochiligida o‘rgatish uslublari bo‘lganidek, dirijyorlik san‘atini ham o‘rgatish uslublari mavjud. Unda texnik ko‘nikmalarga katta ahamiyat berish zarur. Dirijyor uchun uning imo-ishoralari,

gavda holati, bosh, hattoki oyoqlari holati ham befarq bo'lmazligi lozim. Gavdaning hamma qismlari dirijyorlikning barcha xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi qo'llariga yordam bermog'i shart. Bugungi kunga qadar buyuk simfoniyalar yaratib, zamonamizning ulug' siymolariga aylangan san'at fidoyilari jumlasiga V.Uspenskiy, N.Mironov, A.Kozlovskiy, S.Yudakov, M.Leviev, T.Jalilov, T. Sodiqov, Yu.Rajabiy, D.Zokirov, M.Ashrafiy, M.Burxonov, A.Nazarovlarni kiritish mumkin. Ular yaratib ketgan buyuk musiqiy asarlar jahonning katta-katta sahnalarida ijro etilib, bugungi kunga qadar o'zining qadr-qimmatini asrlar osha saqlab kelmoqda. O'zbekistonda simfonik orkestr tashkil etish va uni rivojlantirish ishlariga bevosita hissa qo'shganlar ham shu buyuk zotlardir. O'tmishga nazar tashlasak, dastlab O'zbekistonda 1937 yil filarmoniyada yangi tuzilgan xalq cholg'ulari orkestri To'xtasin Jalilov rahbarligida o'z faoliyatini boshlaydi. Bu jamoa Moskva shahrida bo'lib o'tgan o'zbek san'atining o'n kunlik Dekadasida muvaffaqiyatli qatnashib katta shuhrat qozonadi. 1957 yilda O'zbekiston radiosi qoshida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri qaytadan tuziladi. Orkestrga badiiy rahbar Yunus Rajabiy hamda bosh dirijyor lavozimiga ustoz Doni Zokirovni taklif qilishadi. Orkestrning istiqboli uchun mana shu ikki jonkuyar tinmay mehnat qilib, 1953 yilga qadar mazkur orkestrda faoliyat olib borgan ustoz san'atkorlarni orkestrga qayta taklif qilishadi. Shu tariqa 23 nafar xonanda va sozandalardan qayta tashkil topgan orkestrning ijodiy faoliyati yanada yuksalib boradi. Bugungi kunda ham musiqa madaniyati an'analari sodiq qolgan holda o'z ijodlarini ustozlar yo'lidan og'ishmay amalga oshirib kelayotgan orkestrlar Respublikamizda talaygina. Jumladan, O'zbekiston davlat konservatoriyasi 14 qoshidagi xalq cholg'ularidan tashkil topgan "Sug'diyona" jamoasi (rahbari F. Abdurahimova), O'zbekiston davlat Filarmoniyasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'ulari orkestr jamoasi (rahbari D.Mutalov), O'zbekiston Respublikasi milliy simfonik orkestri-respublikada yetakchi simfonik orkestr. 1938 yil O'zbek davlat filarmoniyasi tarkibida O'zbekiston davlat simfonik orkestri nomi bilan tashkil topgan (birinchi bosh dirijyori - G. Shpitalniy). 1982 yildan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jamoa. 1986 yildan hozirgi nomda. O'z faoliyati davomida orkestr chet el mumtoz (Gaydn, Mosart, Betxoven, Brams, Maler, List, Glinka, Chaykovskiy, Ravel, Debyussi va boshqalar) va XX-asr kompozitorlari (R. Shtraus, Britten, Prokofev, Stravinskiy, Onegger, Shchedrin, Shostakovich, Shyonberg, Shnitke va boshqalar)ning deyarli barcha simfonik asarlarini ijro etgan. Jamoa O'zbekiston kompozitorlari (M.Ashrafiy, Ik. Akbarov, M. Burhonov, B. Zeydman, M. Tojiev, M.Mahmudov, R. Vildanov, T. Qurbonov, S. Jalil, M. Bafoev va boshqalar) asarlarining birinchi ijrochisi va targ'ibotchisidir. Orkestrga A.Kozlovsksh, N. Olimov, Z. Haqnazarovlar rahbarlik qilgan. 1998 yildan badiiy rahbari K. Jalilov, bosh dirijyori A.Ergashev. Orkestr bilan mashhur dirijyorlardan K.Kondrashin, Yu.Silantev, AMelikpashaev, A. Kas, F. Mansurov (Rossiya), K. Mazur (Germaniya), J. Boudri (Kanada), S. Akchil (Turkiya), G. Kalayyani (Italiya) va boshqalar, sozandalardan I. Stern, J. Fergyusson (AQSh), M. Az (Fransiya), J. Lill (Angliya), Turini (Italiya), D. Oystrax,

L. Kogan, M. Rostropovich, E. Gilels, R. Kerer, G. Kremer, V. Spivakov, T. Nikolaeva va boshqalar, xonandalardan I. Sumak (Peru), B. Minjilkiev (Qirg‘iziston), M. Reyzen (Rossiya) va boshqalar chiqishlar qilganlar. Orkestr respublikada o‘tkaziladigan simfonik musiqa (“O‘rta Osiyo va Qozog‘iston”, “O‘rta Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari”), zamonaviy musiqa (“Davr sadolari”, “Ilhom — XX”) festivallari, xalqaro musiqa anjumanlarida (Toshkent, 1975; Olmaota, 1975; Samarqand, 1978, 1983 va boshqalar) faol qatnashgan; Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Turkiya, Boltiqbo‘yi va O‘rta Osiyo mamlakatlari, Tailand, Singapurda gastrolida bo‘lgan. Ijrolari o‘nlab gramplastinka va o‘zbek radiosi fonotekasiga yozilgan. nafaqat mamlakatimizda, balki chet davlatlarda bo‘lib o‘tadigan xalqaro tanlovlarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, yurtimiz shon shuhratini tobora yuksaklarga ko‘tarib kelmoqdalar.